

**O‘ZBEKISTONLIK TURIZM MUTAXASSISLARI UCHUN “HINDISTON
TURIZM SOHASIDAGI IMKONIYATLAR VA ISLOHOTLAR” MAVZUSIDA 10
KUNLIK SEMINAR-TRENING**

Ergashev Shoxrux Jamolovich

Samarqand turizm va madaniy

meros texnikumi o‘qituvchisi

Amirtemur891@gmail.com

Annotatsiya: 2025-yil 6-15 oktyabr kunlari Hindistonda bo‘lib o‘tadigan 10 kunlik seminar-trening “Turizmnı rivojlantirishda imkoniyatlar va islohotlar” mavzusiga bag‘ishlanadi. Ushbu tadbirda Hindistonning turizm sohasidagi so‘nggi siyosiy islohotlari, infratuzilma loyihalari, e-visa va homestay hamda mahalliy tadbirkorlikni rag‘batlantirish tashabbuslari muhokama qilinadi. Tajriba almashish, stakholderlar bilan muloqot, holat tahlillari va amaliy mashg‘ulotlar ko‘rinishida o‘tkaziladigan seminar formatida — ishtirokchilarga Hindiston turizm potensialini chuqur o‘rganish va o‘z hududlari uchun mos strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Tadbir yakunida ishtirokchilar Hindistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda kelgusidagi istiqbollarni hisobga olgan holda tavsiyalar tayyorlaydilar.

Kalit so‘zlar: Hindiston, turizm, imkoniyatlar, islohotlar, seminar-trening, infratuzilma, turizm siyosati, mahalliy tadbirkorlik.

**10-DAY SEMINAR-TRAINING ON "OPPORTUNITIES AND REFORMS IN
INDIA’S TOURISM SECTOR" FOR TOURISM SPECIALISTS FROM
UZBEKISTAN**

Ergashev Shokhrux Jamolovich

Teacher of Tourism at Samarkand

Technicum of Tourism

and Cultural Heritage

Amirtemur891@gmail.com

Annotation: The 10-day seminar-training on “Opportunities and Reforms in India’s Tourism Sector” will take place in India from October 6 to 15, 2025. The program focuses on recent policy reforms, infrastructure projects, e-visa initiatives, homestay programs, and the promotion of local entrepreneurship in the tourism industry. Through experience sharing, stakeholder interactions, case studies, and practical exercises, participants will gain a comprehensive understanding of India’s tourism potential and develop strategies applicable to their own regions. By the end of the seminar, participants are expected to prepare recommendations based on India’s ongoing tourism reforms and future prospects.

Keywords: India, tourism, opportunities, reforms, seminar-training, infrastructure, tourism policy, local entrepreneurship.

10-ДНЕВНЫЙ СЕМИНАР-ТРЕНИНГ НА ТЕМУ «ВОЗМОЖНОСТИ И РЕФОРМЫ В ТУРИСТИЧЕСКОЙ СФЕРЕ ИНДИИ» ДЛЯ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ТУРИЗМУ ИЗ УЗБЕКИСТАНА

Эргашев Шохрух Жамолович,
преподаватель Самаркандского
техникума туризма
и культурного наследия,
Amirtemur891@gmail.com

Аннотация: С 6 по 15 октября 2025 года в Индии пройдет 10-дневный семинар-тренинг на тему «Возможности и реформы в туристической отрасли Индии». Программа мероприятия охватывает последние политические реформы, инфраструктурные проекты, инициативы по электронным визам, программы домашнего размещения (homestay) и поддержку местного предпринимательства в сфере туризма. В ходе обмена опытом, взаимодействия с заинтересованными сторонами, анализа кейсов и практических занятий участники получают полное представление о туристическом потенциале Индии и разработают стратегии, применимые в их регионах. По завершении семинара участники подготовят рекомендации, учитывающие текущие реформы и перспективы развития туризма в Индии.

Ключевые слова: Индия, туризм, возможности, реформы, семинар-тренинг, инфраструктура, туристическая политика, местное предпринимательство.

Kirish:

2025-yil 6–15-oktyabr kunlari Hindistonda bo‘lib o‘tadigan “Hindiston turizm sohasidagi imkoniyatlar va islohotlar” mavzusidagi 10 kunlik seminar-trening mamlakatning boy turizm salohiyati, madaniy merosi va amaliy islohotlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan. Tadbir ishtirokchilarni Hindiston turizm sektorining joriy holati bilan tanishtirish, global turizm tendensiyalari, barqaror turizm va BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida amaliy bilimlarni oshirishga xizmat qiladi.

Seminar davomida ishtirokchilar quyidagi yo‘nalishlarda mashg‘ulotlar va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar:

1. Madaniyat va merosi boshqarish: Hindistonning tarixiy va diniy obidalarini saqlash, ularni boshqarish bo‘yicha case-study tahlillari.
2. Turizm marketingi: Raqamli marketing, brend yaratish va sun‘iy intellekt yordamida turizmni targ‘ib qilish amaliyoti.

3. Mehmondo'stlikni boshqarish: Mijozlar bilan muloqot, turli madaniyatlar bilan ishlash ko'nikmalari va xizmat sifatini oshirish strategiyalari.

4. Amaliy field-vizitlar: Delhi shahrida Red Fort, Jama Masjid va Chandni Chowk kabi meros maskanlariga sayohatlar; Agra shahrida Taj Mahal va Agra Fortni o'rganish hamda mahalliy rahbarlar bilan muloqot.

5. Sog'lomlashtirish va sarguzasht turizmi: Ekoturizm, sarguzasht turlari, shuningdek yoga va wellness-turizm bo'yicha mashg'ulotlar.

6. Siyosat va hamkorlik: Turizm siyosatlari, xususiy va davlat sektoridagi hamkorlik (PPP), shuningdek Hindiston va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik imkoniyatlari.

Seminar yakunida ishtirokchilar o'z guruhlarini bilan prezentatsiyalar tayyorlab, olgan bilim va tajribalarni amaliy tarzda namoyish qiladilar, bu esa Hindistonning turizm sohasidagi islohotlarini chuqurroq tushunishga hamda o'z hududlarida tatbiq etish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Day 1 – Orientation & Inaugural

Seminarining birinchi kuni ishtirokchilarni kutib olish, tadbirning maqsad va vazifalarini tushuntirish hamda Hindiston turizmining umumiy ko'rinishi bilan tanishtirishga bag'ishlandi. Shuningdek, madaniy almashuv mashg'ulotlari orqali ishtirokchilar Hindistonning boy madaniy merosi bilan tanishdilar va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ldilar.

Day 2 – Global Tourism Trends

Ikkinchi kun global turizm tendensiyalariga bag'ishlandi. Ishtirokchilar barqaror turizm tamoyillari, ekologik mas'uliyat va BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida turizm rivojlanishi bo'yicha ma'lumot oldilar. Seminar davomida yangi texnologiyalar va turizmni raqamlashtirish strategiyalari ham muhokama qilindi.

Day 3 – Heritage & Culture

Uchinchi kun Hindistonning meros va madaniyat obyektlarini boshqarish bo'yicha case-studylar va amaliy mashg'ulotlarga bag'ishlandi. Ishtirokchilar tarixiy va diniy obidalarini saqlash, ularni turistlar uchun xavfsiz va jozibador qilish bo'yicha tajriba almashdilar.

Day 4 – Tourism Marketing

To'rtinchi kun raqamli marketing, turizm brendini yaratish va sun'iy intellekt yordamida turizmni targ'ib qilishga bag'ishlandi. Ishtirokchilar onlayn platformalarda turistlarni jalb qilish, marketing kampaniyalarini optimallashtirish va SI vositalarini qo'llash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazdilar.

Day 5 – Hospitality Management

Beshinchi kun mehmondo'stlik va xizmat ko'rsatish sohasiga qaratildi. Mijozlar bilan muloqot qilish, turli madaniyat vakillari bilan ishlash, xizmat sifatini oshirish va mehmonlarni qoniqtirish bo'yicha treninglar tashkil etildi.

Day 6 – Field Visit

Oltinchi kun Delhi shahrida Red Fort, Jama Masjid va Chandni Chowk kabi tarixiy maskanlarga field-vizit orqali amaliy tajriba olishga bag'ishlandi. Ishtirokchilar sayohat

davomida mahalliy boshqaruv va turizmni boshqarish jarayonlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Day 7 – Adventure & Wellness

Yettinchi kun ekoturizm, sarguzasht turizmi va wellness (yoga va sog'lomlashtirish) turlariga bag'ishlandi. Ishtirokchilar Hindistonda sog'lomlashtirish va dam olish turizmini rivojlantirish bo'yicha innovatsion metodlar bilan tanishdilar.

Day 8 – Field Visit

Sakkizinchi kun Agra shahriga sayohat qililib, Taj Mahal va Agra Fortni o'rganish hamda mahalliy turizm rahbarlari bilan interaktiv muloqot tashkil etildi. Bu kun ishtirokchilarga turizm infratuzilmasi va boshqaruv tajribasini amaliy ravishda kuzatish imkonini berdi.

Day 9 – Policy & Collaboration To'qqizinchi kun Hindiston turizm siyosati, xususiy va davlat sektoridagi hamkorlik (PPP) va Hindiston-O'zbekiston turizm sohasidagi hamkorlik imkoniyatlariga bag'ishlandi. Ishtirokchilar turizmni rivojlantirish uchun davlat siyosati va xalqaro hamkorlikning rolini o'rganishdi.

Day 10 – Valedictory

Seminarning so'nggi kuni guruh prezentatsiyalari, fikr-mulohazalar almashinuvi va sertifikatlar topshirish marosimiga bag'ishlandi. Ishtirokchilar olgan bilim va tajribalarni amaliy tarzda namoyish qilib, Hindiston turizm sohasidagi islohotlarni o'z hududlarida tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdilar.

Seminar ishtirokchilari Hindiston turizm sohasining hozirgi holati bilan tanishtirildi. Masalan, India 2024-yilda 20.57 million xalqaro turist qabul qilgan va turizm sohasidan olgan daromadi taxminan USD 35.02 milliardga yetgan[1]

Shuningdek, 2025-yilga qarab turizm sektorining hajmi va undagi ish o'rinlari o'sishida muhim rol o'ynashi kutilmoqda. Masalan, turizm sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga (YaIM) qo'shgan hissasi joriy hisoblarda 5 % atrofida ekanligi qayd etilgan.

Global tendensiyalar doirasida Hindistonda ichki turizm tez o'smoqda. Masalan, 2024-yilda ichki turist safarlari 2,948 milliondan oshgan[1]

Bundan tashqari, 2025-26 yil byudjetida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, mehmondo'stlik sohasida malakali kadrlar tayyorlash va e-visa jarayonlarini soddalashtirish kabi chora-tadbirlar belgilangani ma'lum. [2]

Hindistonda madaniy va tarixiy meros sayyohligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, turizm siyosatida "top 50 turist manzili"ni infratuzilma bilan ta'minlash belgilangan. [3]

Bu esa seminar ishtirokchilariga meros obyektlarini boshqarish, xavfsiz va jozibador shaklda sayyohlarga taqdim etish bo'yicha amaliy model va tajriba olish imkonini beradi.

Raqamli marketing va brend yaratish masalasida Hindistonda yirik islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, e-visa tizimi kengaytirilgan va ba'zi turist guruhlar uchun vizalar to'lovi bekor qilingan. [2]

Shuningdek, turizm sektoriga aloqador xizmatlar — mehmonxona, transport va axborot tizimlari — raqamlashtirilmoqda va bundan marketerlik strategiyalarini takomillashtirish sohasida foydalanish mumkin.

Mehmondo'stlik va xizmat ko'rsatish darajasini oshirish uchun Hindiston hukumatining «homestay» (uy sharoitida turar joy) modeliga kreditlar ajratilishi bilan mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. [4]

Olingan natijalar:

Seminar doirasida ishtirokchilar turizm xizmatlarida mijozlar bilan muloqot qilish, xizmat sifati, madaniyatlararo aloqalar kabi mavzularni chuqur o'rganadilar.

Delhi shahrida joylashgan tarixiy maskanlarda — Red Fort, Jama Masjid va Chandni Chowk — «meros bilan sayohat» asosida amaliy vizit o'tkaziladi. Bu bilan ishtirokchilar nazariy bilimlarni real muhitda kuzata oladilar.

Hindistonda wellness-turizm va ekoturizm yo'nalishlari ham jadal rivojlanmoqda. Seminar davomida yoga, sog'lomlashtirish va sarguzasht turizmi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi, bu esa manfaatdor ishtirokchilar uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Agra shahrida Taj Mahal va Agra Fort kabi obidalar bora kuzatiladi. Mahalliy turizm boshqaruvi vakillari bilan muloqot tashkil qilinib, infratuzilma va boshqaruv tajribasi o'rganiladi.

Turizmga oid siyosatlar va davlat-xususiy sherikliklar (PPP) bo'yicha Hindiston tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar ham muhokama qilinadi. Misol uchun, 2025 yil byudjetida turizm sohasida infratuzilmani yaxshilash, malakali kadrlarni tayyorlash va sayohat imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishlari belgilangani ma'lum.


Shuningdek, Hindiston va O'zbekiston o'rtasida turizm sohasida hamkorlik imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Seminar yakunida guruh ishlari, taqdimotlar, fikr-mulohazalar va sertifikat topshirish marosimi o'tkaziladi. Ishtirokchilar Hindistonda mavjud statistik ma'lumotlar va islohotlardan kelib chiqib, o'z hududlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqadilar.

2025-yil 8-9-oktyabr kunlari Hindistonning Nyu-Dehli shahridagi India Habitat Centre da Universitet of Delhi hamda College of Vocational Studies tomonidan "Sun'iy intellekt va IT innovatsion kesishmalari orqali ijtimoiy fanlarni qayta ko'rib chiqish: raqamli asrda ijtimoiy izlanish kelajagini belgilash" mavzusida milliy simpozium tashkil etildi. Ushbu tadbirda turizm sohasi vakillari ham ishtirok etib, sun'iy intellekt va axborot texnologiyalari imkoniyatlarini turizmni rivojlantirishda qo'llash yo'llarini o'rganishdi.

Simpoziumda taqdim etilgan ma'ruzalar va interaktiv sessiyalar sun'iy intellekt yordamida turizm marketingi, raqamli brend yaratish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda turizm siyosatlarini takomillashtirish masalalarini qamrab oldi. Mazkur tadbir turizm sohasida innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun muhim platforma bo'ldi.

Hindistonning turizm sohasidagi istiqbolli imkoniyatlari va sohadagi islohotlar, ayniqsa, raqamli texnologiyalar orqali turizm xizmatlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar 2025-yilda mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida ko'rilmogda. Ushbu seminar ishtirokchilari uchun bu tajriba o'z hududlarida turizmni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.





University of Delhi
Department of Continuing Education and Extension

Certificate of Participation

This is to certify that Shobhark Ergasher has
successfully completed the Ten-Day Training Programme on "Opportunities and Ongoing
Reforms in India's Tourism Industry" organized by the Department of Continuing Education
and Extension, University of Delhi, held from 6th October to 15th October 2025.

The training comprised a total of 80 hours, including: 60 hours of Theory Sessions and 20 hours
of Practical Training

This programme was conducted for the Tourism Committee of the Republic of Uzbekistan, and
aimed to enhance knowledge and skills in tourism development, management, and policy reforms.


Dr. Geeta Mishra
Course Convener

Date: 15/10/2025


Prof. Kumar Ashutosh
Head of Department
Department of Continuing Education and Extension
University of Delhi

Xulosa va takliflar:

Hindistonning Delhi universiteti tomonidan tashkil etilgan 2025-yil 6–15-oktyabr kunlari bo‘lib o‘tgan “Turizm sohasidagi imkoniyatlar va islohotlar” mavzusidagi 10 kunlik seminar-treningida ishtirok etish natijasida, sun‘iy intellekt (SI) va axborot texnologiyalarining turizmni rivojlantirishdagi muhim ahamiyati yana-da aniqlandi. Ushbu trening davomida SI yordamida turizm sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab amaliy tajribalar o‘rganildi.

Samarqand misolida esa, shahar boy tarixiy va madaniy merosga ega bo‘lib, uni raqamlashtirish, SI asosida interaktiv xizmatlar yaratish va ma‘lumotlarni tahlil qilish orqali turizm sohasining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu jarayon mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va xalqaro sayyohlarni jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Takliflar:

1. Sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish: Samarqand shahrida turizm xizmatlarini yaxshilash maqsadida SI asosida interaktiv mobil ilovalar va onlayn platformalarni yaratish.

2. Mahalliy mutaxassislar malakasini oshirish: Turizm va IT sohasida ishlovchi xodimlar uchun SI bo‘yicha muntazam o‘quv kurslari va treninglar tashkil etish.

3. Raqamli marketing va reklama kampaniyalarini kuchaytirish: SI texnologiyalarini qo‘llagan holda, sayyohlarning xulq-atvorini tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish.

4. Hukumat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish: SI bo‘yicha turizmni rivojlantirish loyihalarida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash.

5. Turizm siyosatini raqamli davrga moslashtirish: Turizm sohasida qonunlar va tartib-taomillarni SI va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish.

Yuqoridagi takliflar amalga oshirilsa, Samarqand shahrining turizm salohiyati sezilarli darajada oshadi, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratiladi hamda mintaqaviy va xalqaro sayyohlik bozorda raqobatbardoshlik kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "India Tourism Data Compendium 2025 Shows 20.57 million Arrivals, USD 35 Billion Receipts"

2. "Promoting spiritual & heritage tourism - Budget 2025-26: India's tourism gets a major boost! Visa reforms, homestay loans & destination upgrades announced | The Economic Times"

3. "Top 50 tourist sites to get a makeover - Budget 2025-26: India's tourism gets a major boost! Visa reforms, homestay loans & destination upgrades announced | The Economic Times"

4. "Key initiatives for tourism growth - Budget 2025-26: India's tourism gets a major boost! Visa reforms, homestay loans & destination upgrades announced | The Economic Times"